

DİSFEMİZMLARNING TILSHUNOSLIKDA TUTGAN O‘RNI

Mehrinigor Axmedova Bahodirovna

Buxoro Davlat Universiteti, dotsent

Davronova Gulruh Ixtiyor qizi

Buxoro Davlat Universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Quyidagi maqolada disfemizm atamasining lug‘aviy ma‘nosi va kelib chiqishi, tilshunoslarning unga bergan ta‘riflari, uning nutqda yuzaga kelishiga sabab bo‘luvchi omillar, disfemistik atamalarning paydo bo‘lishi, disfemizatsiya hodisasi, hamda disfemizmlarning ingliz tilida tasniflanishi va misollar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: evfemizm, denotat, muloqot xulqi, disfemizm, disfemizatsiya, kommunikativ maqsad.

Abstract: In the article, the dictionary meaning of the term dysphemism, the definitions given to it by linguists, the factors causing its occurrence in speech, the emergence of dysphemistic terms, the phenomenon of dysphemization, and the classification of dysphemisms in English and examples are given.

Key words: euphemism, denotation, communicative behavior, dysphemism, dysphemization, communicative purpose.

Аннотация: В статье приведены словарное значение термина дисфемизм, определения, данные ему лингвистами, факторы, вызывающие его появление в речи, появление дисфемистических терминов, явление дисфемизации, а также классификация дисфемизмов в английском языке и примеры.

Ключевые слова: эвфемизм, денотат, коммуникативное поведение, дисфемизм, дисфемизация, коммуникативная цель.

Jamiyat barpo qilingandan buyon insoniyat o‘sha jamiyatning madaniy muloqot me‘yorlari ustida izlanib kelmoqda. Ana shunday me‘yorlar ichida muloqot xulqi masalasi markaziy o‘rinda turadi. Muayyan millat vakillari muloqot xulqi haqida so‘z borganda evfemizmga to‘xtalib o‘tiladi. Ammo evfemizmning aksi bo‘lgan disfemizm qadimdan mavjud bo‘lgan bo‘lishiga qaramasdan evfemizmdan farqli o‘laroq kam o‘rganilgan. Bunga sabab esa yuqorida aytib o‘tilgan madaniy muloqot me‘yorlarini

izlashdadir. Chunki ular badiiy adabiyotda, madaniy muloqot muhitida odob nuqtai nazaridan berilishi mumkin bo'lmagan birlik sifatida qarab kelingan. Odatda tishunoslikka oid lug'atlarda disfemizm xususida alohida to'xtalib o'tilmay unga evfemizm bo'limida yo'l-yo'lakay izoh berib ketilgan.

«Disfemizm» atamasini izohlash uchun leksikografik [manbalarga murojaat](#) qilamiz:

Merriam-Webster lug'atida disfemizmga quyidagicha ta'rif berilgan: nomaqbul, haqoratli yoki kamsituvchi iborani maqbul yoki haqoratli so'z bilan almashtirish

shuningdek: shunday almashtirilgan ifoda⁶. Va bu lug'atda "ager" so'zini ya'ni yoshi qari insonga nisbatan biroz qo'polroq holatda ishlatilishini misol qilib keltirishimiz mumkin.

T.V. Matveeva o'z maqolasida disfemizm to'g'risida kengaytirilgan ta'rifni beradi: disfemizm – «emotsional holatni qo'pol ravishda bildirish, stilistik jihatdan neytral so'z yoki iborani qo'pol so'z, ibora bilan almashtirish». Muloqot jarayonida so'zlovchi o'z suhbatdoshini kamsitish, tahqirlash, obro'sizlantirishni maqsad qiladi. [Bunda nutq qoidalari buziladi](#), munosabatlarda beadablik, hayosizlik kuzatiladi [Matveeva, 2010:95].

Bu ta'riflardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, har bir disfemizm uchun stilistik jihatdan uning neytral sinonimi mavjud. Biroq olim L.V. Poroxnitskaya o'z maqolasida bu neytral so'zni [har doim ham evfemizm](#), disfemizm, ortofemizmdan chegaralab bo'lmashligini ta'kidlaydi [Poroxnitskaya, 2013:143]. Disfemizmni siyosat sohasida tadqiq qilgan olim T.N. Abakova disfemizatsiyani istalgan pragmatik effektga erishish [va auditoriyaga maqsadli](#) ta'sir qilish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan taktik til vositasi sifatida tushunish mumkin degan xulosaga keladi [Abakova, 2013:27].

Dastlab Yevropa tilshunoslari e'tiborini tortgan ayni hodisa Vidlak, Jelvis, Katsev Sheygal, Allen Giezek kabi olimlarning ishlarida o'z aksini topgan. Ularning ta'kidlashicha disfemizmlarning evfemizmlar bilan o'xshash tomonlari shundaki u denotatga ma'lum konotativ ma'no yuklaydi, til sathida sinonimik qatorni tashkil etadi, evfemizm bilan birdek qadimiy jarayon hamda nutqiy hodisa sifatida qaraladi.

Disfemizm ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda turli illatlar: giyohvandlik, foxishabozlik, o'g'rilik, yetimlik avj olgach, evfemik birliklar qatorida nutq sathida yetarli darajada o'z o'rniga ega bo'la boshladi va tilshunoslik tadqiq manbaiga aylandi.

D. Lourens va bosha tadqiqotchilar tomonidan so'z erkinligi va ochiqqligi yoqlanar ekan, ularning foydali tomonlari ta'kidlanadi. Masalan noxush tushuncha qanchalik

⁶ "Dysphemism." Merriam-Webster.com Dictionary, Merriam-Webster, <https://www.merriam-webster.com/dictionary/dysphemism>. Accessed 27 Apr. 2023.

berkitilsa, shunchalik qiziqarli bo'lishi, yomonlikni taqiqlagan sayin unga e'tibor kuchayishi va samarasi teskari bo'lishi mumkinligi e'tirof etilgan. Bu esa o'z-o'zidan ma'lum ma'noda evfemizatsiyaning qisqarishiga olib keladi. Shuning uchun ham so'nggi yillarda disfemizm mavzusi yuzasidan Yevropa mamlakatlari tadqiqotchilari tomonidan bir nechta ishlar olib borilayotgani ko'zga tashlanadi. Jumladan, a. N Rezanova ingliz tili disfemizmlarini o'rganar ekan, disfemizm tarixi, badiiy nutqdagi vazifalari leksik-semantik tahlili va tasnifini amalga oshiradi. Disfemizmga ham asosan nutqda ro'y beradigan nolisoniy omil sifatida qarash lozimligi, u denotat salbiy ta'sirining kuchayishi ekanligi e'tirof etiladi: "disfemizm- denotatni (tahqirlovchi u yoki bu tarzda ottenkali) salbiy bo'yoqdor so'z bilan ifodalashdir".

Disfemizatsiya til birliklarining pragmatik ma'nosi bo'lib, u evfemizatsiyaga zid turadi. Buning sababi shundaki disfemizatsiya hodisaning ba'zan ijtimoiy, ba'zan

esa individual streotiplar bilan bog'lanishidir. Disfemizatsiya leksemalarning nutqiy qo'llanish differensiyasini ham keltirib chiqaradi. Bu esa o'z navbatida kontekstual ma'nodoshlik qatorini boyishini ham ta'minlaydi. Disfemizm tasnifi tilshunosik sohasida ayrim ishlardagina amalga oshirilgan. Masalan, ingliz tilida leksik-semantik jihatdan quyidagicha tasnif qilinadi:

- O'lim, kasallik, jismoniy va ma'naviy nuqsonlarni bildirib keluvchi disfemizmlar;
- Keng doiradagi jinoiy guruhlar bilan bog'liq disfemizmlar,
- Inson nuqsonlari bilan bog'liq disfemizmlar;
- Millatga mansub disfemik nomlar;
- Alloh, iblis (shayton), cherkov marosimlari bilan bog'liq disfemizmlar⁷.

Quyida ingliz tilidagi ayrim disfemizmlarda misollar keltirib o'tamiz:

Bleeding –heart- ijtimoiy ko'mak beruvchi;

Do-gooder- hayvonlar va insonlarga mehribonli qiluvchi, yordam beruvchi shaxs;

Loser-shaxsiy kasbi va puli bo'lmagan shaxs

Overthink-chuqur o'ylamoq;

Primitive- G'arb mamlakatida istiqomat qilmaydigan shaxs

Slum-qashshoq aholi yashaydigan hudud

Subversive- hukumatni yoki siyosiy tuzumni ag'darish harakat qiluvchi.

Demak, disfemizm yagona shaklni qabul qilmaydi, faqatgina odobdan tashqari, vulgar, axloqsiz so'zlar bilangina chegaralanib qolmaydi. Ya'ni disfemizmni qo'pol, dag'al, vulgar nutqning, o'zida noxushlikni ifodalaydigan so'z va iboralarning mahsuli deb qarash noto'g'ri bo'ladi. Kontekst(matn) orqali disfemizmni belgilash maqsadga muvofiq bo'ladi. Misol uchun bir so'zni qat'iy disfemik so'z deb oladigan bo'lsak, bu barcha kontekstual holatlarda o'zini oqlamasligi mumkin.

⁷ Кодирова Х.Б. Дисфемизмларнинг ўрганилиш тарихи ва таснифи // ЎТА, № 1 – Т., 2011. – Б. 115

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абакова Т. Н. Дисфемизмы и эвфемизмы как способ языкового воплощения стратегии дискредитации в текстах политической сферы (на материале англоязычной прессы) // Аналитика культурологии. – 2013. – №27 .
2. Кваскова Л. В. Дисфемизация речи как [коммуникативная тактика в дискурсе](#) // Преподаватель XXI век. – 2016. – Т. 3. – №. 2. – С. 353.
3. Матвеева Т. В. Полный словарь лингвистических терминов / Т. В. Матвеева. – Ростов н/Д. : Феникс, 2010. – 95 с.
4. Мосиевич Л. Дисфемизмы и языковая картина мира // Наукови записки [Кіровоградського державного педагогічного [университету імені Володимира Винниченка](#)]. Сер.: Філологічні науки. – 2009. – №. 81 (3). – С.
5. Порохницкая Л. В. Эвфемистический потенциал в парадигматике (к вопросу о разграничении эвфемизмов и смежных языковых явлений) // Вестник Московского гос. лингвистического унта. – 2013. – №. 1 (661)– С. 143.
6. Қодирова Х.Б. Дисфемизмларнинг ўрганилиш тарихи ва таснифи // ЎТА, № 1 – Т., 2011. – Б. 115
7. Резанова А. Н. Понятие о речевой норме и [стандартах в контексте проблемы дисфемии в речи](#) // Известия Российского [государственного педагогического университета им. А. И. Герцена](#). – 2008. – №. 51. – С.
8. “Dysphemism.” Merriam-Webster.com Dictionary, Merriam-Webster, <https://www.merriam-webster.com/dictionary/dysphemism>. Accessed 27 Apr. 2023.
9. Mehrinigor Bahodirovna, A. (2019). Ways of translation of ‘spirituality’ terms in English and Uzbek languages. *Proceedings of The ICECRS*, 4. <https://doi.org/10.21070/icecrs.v4i0.124>
10. https://www.englishclub.com/ref/Dysphemism_Examples